

MAKTABGACHA 4-5 YOSHLI BOLALARNI IJTIMOYIY-EMOTSIONAL RIVOJLANISH TUSHUNCHASI VA UNING AHAMIYATI

Kattaho'jayeva Shaxlohon Bohodirovna

**Maktabgacha ta'lim tashkiloti director
mutahassislarini qayta tayyorlash
va ularni malakasini oshirish instituti
"maktabgacha va musiqiy ta'lim"
kafedra katta o'qituvchisi
Telefon +998998350075**

Annotatsiya: Maqolada ushbu yosh davrida kuzatiladigan emotsional reaksiyalar, ijtimoiy moslashuv jarayonlari hamda pedagogik qo'llab-quvvatlashning samarali usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, tarbiyachi va ota-onalarning mazkur jarayondagi o'rni, rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratishning ahamiyati ilmiy-nazariy va amaliy misollar asosida asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari 4–5 yoshli bolalarda ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni shakllantirish ularning kelajakdagi o'quv faoliyati, shaxsiy rivojlanishi va jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuvi uchun muhim poydevor bo'lishini ko'rsatadi.

Аннотация:

В статье анализируются эмоциональные реакции, наблюдаемые в данном возрастном периоде, процессы социальной адаптации, а также эффективные педагогические методы поддержки. Кроме того, обосновано значение роли воспитателя и родителей в данном процессе, а также создание развивающей и поддерживающей среды на основе научно-теоретических и практических материалов. Результаты исследования показывают, что формирование социально-эмоциональных навыков у детей 4–5 лет является важной основой для их дальнейшей учебной деятельности, личностного развития и успешной адаптации в обществе.

Annotation:

The article analyzes the emotional reactions observed during this age period, the processes of social adaptation, and effective pedagogical methods of support. In addition, the importance of the role of educators and parents in this process, as well as the creation of a supportive and developmental environment, is substantiated based on theoretical and practical evidence. The research results show that the formation of social-emotional skills in children aged 4–5 serves as an important foundation for their future learning activities, personal development, and successful adaptation to society.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, 4–5 yoshli bolalar, ijtimoiy-emotsional rivojlanish, emotsional barqarorlik, ijtimoiy moslashuv, hamdardlik, o'zini boshqarish, muloqot ko'nikmalari, shaxsiy rivojlanish, emotsional intellekt, tarbiyachi roli, ota-ona ishtiroki, bolalar psixologiyasi.

Ключевые слова: дошкольное образование, дети 4–5 лет, социально-эмоциональное развитие, эмоциональная устойчивость, социальная адаптация, эмпатия, саморегуляция, коммуникативные навыки, личностное развитие, эмоциональный интеллект, роль воспитателя, участие родителей, детская психология.

Keywords: preschool education, children aged 4–5, social-emotional development, emotional stability, social adaptation, empathy, self-regulation, communication skills, personal development, emotional intelligence, role of the educator, parental involvement, child psychology.

Bola o'z his-tuyg'ularini anglay olgan, ularni nazorat qilgan va boshqalar hissiyotiga e'tiborli bo'lgan taqdirda, u ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli, barqaror, mas'uliyatli shaxs sifatida

shakllanadi. Aynan maktabgacha yosh davri bolaning emotsional sohasini asosli rivojlantirish va ijtimoiy munosabatlar tamoyillarini singdirish uchun eng qulay va qudratli bosqich hisoblanadi.

Ijtimoiy-emotsional rivojlanish quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

O'zini anglashi – bola o'z ismi, qobiliyatlari, ehtiyoj va hissiyotlarini farqlay oladi. His-tuyg'ularni ifoda etishi va boshqarishi – quvonch, xafa bo'lish, g'azab, xavotir kabi his-tuyg'ularni so'z orqali yoki mimika-harakatlar bilan ifodalay olishi, ularni o'zlashtira bilishi. Empatiya – boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish va ularga nisbatan munosabat bildirishi (yordam berish, tinchlantirish, bo'lishish).

Muloqot va ijtimoiy muomala – do'stlar bilan muloqot qilish, o'yinlarda navbat kutish, umumiy qoidalarni tushunish va ularga amal qilish.

Jamoaga qo'shila olish – o'zini jamoa a'zosi deb his qilish, boshqalarning fikrini eshitish, bahsli vaziyatlarni hal qilishga intilish.

Metodik ahamiyati:

Ijtimoiy-emotsional rivojlanish bolalarda:

Muloqot va til o'sishini tezlashtiradi; o'yin, hamkorlik va jamoaviy faoliyatlarda ishtirokni oshiradi; ijobiy xulq-atvorni shakllantiradi; o'ziga ishonch va boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo'lishga asos yaratadi; maktabga psixologik va ijtimoiy tayyorgarlikni mustahkamlaydi.

Emotsiyalarni so'zlar orqali ifodalashni o'rgating: “Siz xafa bo'ldingizmi?”, “Siz quvondingizmi?”.

Har bir bolaning his-tuyg'usini tan oling, ijobiy rag'bat bering. Konflikt holatlarida vaziyatni tinchlantirish uchun vositachilik qiling. Hissiy o'yinlar, dramatik rollar, mimika o'yinlarini ko'proq joriy eting.

O'rta guruh (4-5 yosh)

Bu bosqichda bola o'z va boshqalarning his-tuyg'ularini anglashda sezilarli

o'sishni namoyon eta boshlaydi. Ular “Nima uchun?” degan savollarni ko'p beradi va boshqalarning reaksiyalariga nisbatan qiziqish uyg'ona boshlaydi. Jamoada o'ynash va guruhda o'zini tutish ko'nikmalari shakllanadi.

Asosiy xususiyatlar:

Empatiya (*boshqaning hissiyotini tushunish*) rudimentar (*hali to'liq shakllanmagan, boshlang'ich darajadagi fikrlash*) shaklda paydo bo'ladi.

Oddiy ijtimoiy qoidalarni tushunadi: navbat kutish, yordam berish, salomlashish.

Do'stona munosabatlarga intilish kuchayadi, “do'st” tushunchasi shakllanadi.

Hissiy holatini tushuntira oladi: “Men xursandman, chunki...”, “Men xafa bo'ldim, chunki...”.

O'z xatti-harakatlariga baho bera boshlaydi, ijobiy rag'batni qadrlaydi.

O'yin davomida murosaga kelish, navbat bilan harakat qilish, o'yin qoidalariga rioya qilishga harakat qiladi.

Pedagogik tavsiyalar:

Hissiyotlar haqida suhbatlar tashkil eting: “Bugun o'zingizni qanday his qilyapsiz?”.

Do'stlik, yordam, mehr-oqibat haqida ertak va hikoyalarni muhokama qiling.

Jamoaviy rolli o'yinlar orqali ijtimoiy rollarni o'rgating (do'st, sotuvchi, mehmon).

Bahsli vaziyatlarni hal qilish usullarini bolalar bilan birga muhokama qiling: “Agar kimdir sizning o'yinchingizni olib qo'ysa, nima qilasiz?”

Ijtimoiy-emotsional rivojlanishning yoshga xos bosqichlarini chuqur anglash orqali pedagoglar har bir bolaning ehtiyojiga mos metodlarni tanlay oladi. Bolaning o'z hissiyotlarini anglab, ularni boshqarishni o'rganishi – u maktabga tayyor bo'lishining muhim mezonlaridan biridir. Shu bois, har

bir yosh davrida ijtimoiy-emotsional muhitni to'g'ri tashkil etish pedagogik faoliyatning muhim jihati. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-emotsional rivojlanishni qo'llab-quvvatlashda ta'limiy faoliyatlar va o'yinlar muhim o'rin tutadi. O'yinlar orqali bola his-tuyg'ularini anglaydi, boshqalarning holatiga baho berishni o'rganadi, o'z xatti-harakatlarini nazorat qilishga intiladi va jamoada o'zini tutish qoidalarini egallaydi.

Ta'limiy faoliyatlar bolaning shaxsiy hissiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda, individual va guruh shaklida tashkil qilinishi lozim. Quyida 3-5 yoshli bolalarga mos ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantiruvchi ba'zi o'yin va ta'limiy faoliyat namunalari keltiriladi.

Faoliyat mavzusi: "Hissiyot yuzlari"

Maqsad: Bolalarda asosiy emotsiyalarni (*xursandlik, xafalik, qo'rquv, g'azab, hayrat*) farqlash, nomlash va ifoda etish ko'nikmasini rivojlantirish.

Kerakli jihozlar: Emotsiyalar ifodalangan suratlar, ko'zoynak, niqoblar, oynacha.

Pedagog har xil hissiyotni ifodalovchi suratlarini ko'rsatadi. Har bir suratda qanday emotsiya tasvirlangani haqida bolalar fikr bildiradi. Bola o'z tajribasidan misollar keltiradi: "Men qachon xursand bo'lganman?", "Nega yig'lagan edim?"

Mimika orqali hisni ko'rsatish vazifasi beriladi (masalan, "G'azablangan yuzni ko'rsat!").

Boshqa bolalar bu emotsiyani topib aytishadi.

Natija: Bola emotsiyani tan olish, nomlash va ifoda etishni o'rganadi.

Empatiya boshlang'ich ko'nikmalari shakllanadi.

Faoliyat mavzusi: "Men va do'stim"

Maqsad: Musiqa vositasida hissiy holatlarni anglash va ifoda etish, emotsional sezgirlikni rivojlantirish.

Kerakli jihozlar: Turli ohangdagi musiqiy parchalar (*shodiyona, sekin, keskin, hayratli*).

Pedagog musiqa chaladi – bola bu ohangga mos hissiy holatni nomlaydi. Bolalarga "Ushbu musiqaga mos harakat qiling" deb topshiriq beriladi. Harakatlar va mimika orqali musiqaning emotsional kayfiyatini ifoda etishadi.

Natija: Bolalar musiqani tinglab, u orqali o'z his-tuyg'ularini tan olish va ifodalashni o'rganadi. Sezgi va emotsional sezgirlik rivojlanadi. Ta'limiy faoliyatlar va o'yinlar orqali bola nafaqat o'z hissiyotlarini anglaydi va ifodalaydi, balki boshqalarning hissiy holatiga nisbatan e'tiborli bo'lishni, munosabatlar o'rnatishni, jamoadorlik va murosani o'rganadi. Bunday faoliyatlar, shuningdek, bolada o'z-o'zini boshqarish va tan olish, empatiya va

sotsial mas'uliyat tuyg'ularini shakllantirishda asosiy vosita hisoblanadi.

Pedagogik tavsiyalar

Ijtimoiy-emotsional rivojlanish maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik salomatligi, muloqot madaniyati, shaxs sifatida shakllanishi va kelajakdagi ijtimoiy faoliyatlariga mustahkam poydevor yaratadi. Shu bois, pedagoglar ushbu yo'nalishda maqsadli, ongli va tizimli faoliyat olib borishlari zarur. Quyidagi tavsiyalar pedagoglar uchun amaliy yo'riqnoma bo'lib xizmat qiladi:

Emotsional xavfsiz muhit yarating!

Har bir bola o'zini qadrlangan, eshitilgan va qabul qilingan his qiladigan sinf muhitini yarating.

Bolaning his-tuyg'ulariga e'tibor bering, uni so'z bilan qo'llab-quvvatlang ("*Sen xafasan, men buni tushunyapman*").

Tanbeh o'rniga, bolaga xatoni tushunish imkonini bering va to'g'ri yo'lni ko'rsating.

His-tuyg'ularni anglash va ifoda etishni o'rgating!

Har kuni suhbat orqali bolaning kayfiyati haqida so'rang (*"Bugun o'zingni qanday his qilyapsan?"*).

"Hissiyot yuzlari" kartochkalari, rasm chizish, hikoya tuzish orqali bola emotsiyalarini bildirishga imkon yarating.

Bola qanday emotsiyani boshdan kechirayotganini aniqlashda unga yordam bering.

Muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiring!

Juftlik va kichik guruhli ishlarda bolalarga bir-birlari bilan fikr almashish, yordam so'rash, navbat kutish, baham ko'rishni mashq qildiring.

Konfliktli vaziyatlarda bolalarga tinch muhokama qilish va murosa qilish yo'llarini o'rgating.

Har bir faoliyatdan so'ng bolalarga sherigi haqida ijobiy fikr aytish imkoniyatini bering.

Ijobiy ijtimoiy xulqni rag'batlantiring!

Yaxshi xatti-harakatlarni bevosita nomlab maqtang: "Sen do'stinga yordam berding, bu juda yaxshi ish!"

Barcha bolalar uchun umumiy rag'batlantirish emas, individual yutuqlarni e'tirof eting.

Bola noto'g'ri ish qilganda, uning xatti-harakatini emas, holatni muhokama qiling.

Rolli va emotsional o'yinlarga keng o'rin bering!

Bolalar uchun "Do'konda o'ynaymiz", "Shifokor va bemor", "Uyda mehmon bor" kabi rolli o'yin ssenariylarini tayyorlang.

Emotsiyalarni tushunishga yo'naltirilgan musiqiy o'yinlar, drammatizatsiyalar va his-tuyg'u asosidagi hikoyalarni faol qo'llang.

Har bir rolli o'yin yakunida refleksiya ("Nima bo'ldi?", "Senga nimasi yoqdi?", "Qanday his qilding?") o'tkazing.

Individual farqlarni hisobga oling!

Har bir bolaning emotsional ehtiyojlari, fe'l-atvori va temperamentiga ko'ra yondashing.

Kamgap yoki tortinchoq bolalarga alohida yondashuv orqali ishonchli muloqot muhiti yarating.

Ijtimoiy faolligi past bolalarni katta guruhdan kichik guruhlarga bosqichma-bosqich jalb eting.

Ota-onalar bilan hamkorlik qiling!

Ota-onalarga bolalarning emotsional holati va ijtimoiy xatti-harakati haqida muntazam ma'lumot bering. Uy sharoitida qanday qo'llab-quvvatlash mumkinligi haqida amaliy tavsiyalar bering (masalan, bolalar bilan birga his-tuyg'ular haqida suhbatlashish, birgalikda o'yinlar o'ynash).

Ota-onalar uchun "Emotsional tarbiya" mavzusida seminarlar, treninglar o'tkazing.

Ijtimoiy-emotsional rivojlanishni samarali ta'minlash – nafaqat bolalarning his-tuyg'ularini boshqarishi va ijtimoiy xatti-harakatlarni egallashi, balki ularning o'ziga bo'lgan ishonch, empatiya, hamkorlik va muloqot madaniyatini shakllantirishda muhim omildir. Pedagoglar har bir bolaga e'tiborli, mehribon va sezgir yondashganlarida, ularning ijtimoiy-emotsional jihatdan barqaror shaxs bo'lib kamol topishiga asos yaratgan bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishini aniqlash, eng samarali va tabiiy yondashuvlardan biri bu – pedagogik kuzatuvdir. Pedagogik kuzatuv bolalarning real muhitda, kundalik faoliyat jarayonida qanday harakat qilishi, his-tuyg'ularini qanday ifoda etishi, atrofdegilar bilan qanday munosabatda bo'lishi haqida ob'ektiv tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Ushbu kuzatuvlar orqali pedagog bolaning individual rivojlanish sur'atini, ehtiyojlarini, qiyinchiliklarini va yutuqlarini aniqlashi, shuningdek, tarbiyaviy va ta'limiy yondashuvlarini moslashtirishi mumkin.

Pedagogik kuzatuvlarning asosiy maqsadlari:

Bolaning emotsional holati, hissiyotlarni anglash va ifoda etish darajasini aniqlash;

muloqot madaniyati va ijtimoiy munosabatlarga tayyorlikni kuzatish; empatiya, hamdardlik, yordamga tayyorlik kabi sifatlarni kuzatish; jamoaviy faoliyatda o'zini tutish, navbat kutish, guruhda ishtirok etish darajasini tahlil qilish; stress, tortinchoqlik, tajovuzkorlik yoki befarqlik kabi salbiy emotsional belgilarni erta aniqlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" qonuni // 2019-yil 16-dekabr O'RQ-595-son // www.lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" qonuni // 2020-yil 23-sentabr O'RQ-637-son // www.lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 30-sentabrdagi PF-152-son farmoni // www.lex.uz.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son qarori // www.lex.uz.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to'g'risida" 2024-yil 20-dekabrdagi 867-son qarori // www.lex.uz.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida" 2020-yil 22-dekabrdagi 802-son qarori // www.lex.uz.
7. Grosheva I.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Yevstafyeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Nazarova V.A., Isxakova M.R., Abdunazarova N.F. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi (2-nashr), – Toshkent, 2022-yil.